

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

“Kompyuter grafikasi va web dizayn” fanidan

REFERAT

Mavzu: HTMLda forma va uning elementlari, ulardan foydalanish.

Bajardi:

Murotova L.

Qabul qildi:

Xayatov X.

Buxoro-2016

Mavzu: HTMLda forma va uning elementlari, ulardan foydalanish.

Reja :

1. HTML tili haqida.
2. Htmlda forma. Formaning sintaksis ko'rinishi.
3. Formaning elementlari va ulardan foydalanish.

HTML haqida umumiy tushuncha.

Internetning eng ma'lum va keng tarqalgan qismi bu WWW (World Wide Web) deb nomlanuvchi to'rdir. Bu to'r Web saytlar va alohida Web sahifalardan tashkil topgan. Web sahifalar esa HTML tili yordamida yaratiladi.

HTML tilidan foydalanish uchun dasturchi mutaxassis bo'lish shart emas, chunki bu til juda oddiy va har kim undan foydalanishi mumkin. HTML da ishlash uchun oddiy kompyuter foydalanuvchisi bo'lish va internetda ishlash bo'yicha ozgina malakasi bo'lsa yetarli. HTML tili yordamida har kim o'zining shaxsiy Web sahifasini yoki butun boshli bir Web saytini yaratish orqali o'zini butun dunyo axborot fazosida his qilishi mumkin. Albatta faqat HTML ni bilish interaktiv savdo saytlarini yaratish uchun yetarli emas. Bunday jiddiy maqsadlar uchun dasturlash bo'yicha yaxshi bilim va internetning har xil texnologiyalarini bilish talab qilinadi.

Ammo HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot Web saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5-10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zururati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim. Ushbu qo'llanmadan biz bu imkoniyatlar haqida deyarli hamma narsani bilib olamiz.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Internet - bu cheksiz imkoniyatdir, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun saytlarni yaratish bilan bog'liq uslublarni o'rganish o'rinlidir. Yuqorida HTML tili butun jahon to'ri uchun asos va baza ekanini aytib o'tgan edik.

HTML ning konstrukstiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni xatti xarakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun xujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa `<html>` tegi bilan boshlanib `</html>` tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, ularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «<- - » va «- ->» belgilar orsiga yoziladi.

Masalan:

`<-- Bu izox -->`

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi malumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi `<head>` va yopiluvchi `</head>` teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa `<body>` va `</body>` teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida malumot yoziladi. har qanday Web sahifaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Misol 3_1:

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01//EN">
<html>
```

```
<head>
  <title>
    Xujjat sarlavxasi
  </title>
</head>
<body>
  Asosiy qism
</body>
</html>
```

HTML (HyperText Markup Language)

Dastlab World Wide Web tizimi matnli ma'lumotlarni va HTML xujjatlarni ko'rishga mo'ljallangan, matnni taxrirllovchi tilga o'xshash tizim bo'lgan. Ayni damda HTML tili WWW daga eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. HTML tilida yozilgan ma'lumotlar o'z ichiga matn fayllar, grafik ma'lumotlar va boshqalarni oladi. Xujjatlar orasidagi aloqani ta'minlash va ma'lumotlarni formatlash vositalari teg (tag) deb ataluvchi vosita orqali amalga oshiriladi. Web-sahifaning matn va teglari aralash ravishda HTML-xujjat deb ataluvchi faylining ichiga joylashtiriladi. Qanday tegni qo'llaganingizga qarab bravzeer oynasida ma'lumotlar turlicha ko'rinadi. HTML xujjatga ma'lumotlarni joylashtirish va tahrirlash uchun yuzlab teglar mavjud. Masalan, <p> va </p> teglari abzastni tashkil etadi, <i> va </i> juft teglari esa, matnni yozma (kursiv) holda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga gipermatnli stilkalar teglari ham mavjud. Ushbu elementlar foydalanuvchiga gipermatn ustiga sichqoncha kursori bosilganda boshqa xujjatga bog'lanish imkonini beradi.

XML (eXtensible Markup Language).

XML tili ham HTML tiliga o'xshash til hisoblanadi. HTML dan farqli tomoni shundaki, XML da dasturchi o'zining shaxsiy teglarini yaratadi va ular orasiga ma'lumotlar joylashtiradi. XML-teglar harfla katta kichikligini farqlaydi.

XHTML.

XHTML tili HTML va XML tillarining birlashmasini tashkil etadi. XHTML

tilida yozilgan xujjatning tashqi ko'rinishi platformaga bog'liq (Windows, Mac yoki Unix) ravishda o'zgarib ketmaydi. Shunga qaramay XHTML tarkibida HTML diskriptorlardan foydalaniladi.

Bugungi kunda mobil aloqa vositalaridan foydalanuvchilar uchun yangi til ishlab chiqilgan bo'lib, u WML (Wireless Markup Language) deb ataladi; CDF (Channel Definition Format) - Microsoft ishlab chiqqan brauzerlarda push-kanal hosil qilishda qo'llaniladi;

sstenariyli tillar. "klient-server" texnologiyasi

Hozirda Web-sahifaning rivojlanishi yanada interaktiv pog'onasiga chiqqan. Web-saytlar asta sekinlik bilan ilovalar interfeysiga o'xshab bormoqda. Bularning barchasi zamonaviy Web-dasturlash texnologiyasi yordamida amalga oshmoqda. Web-dasturlash texnologiyalarini, dasturlarini asosan ikkita qismga ajratish mumkin: klient tomonidagi dasturlarlash (client-side) va server tomonidagi (server-side).

Ushbu texnologiyalarni tushunish uchun avvalo bevosita "klient-server" texnologiyasini tushunish kerak.

Web-sahifaning interaktiv dasturi sstenariy deb ataladi.

Bunday atama dasturning natijasiga bog'liq holda vujudga kelgan. Uning asosiy vazifasi Web-sahifasida foydalanuvchi holatiga, harakatiga «reakstiya» berishdir. Shu tariqa sstenariylar klient tomonid bajariluvchi va server tomonidan bajariluvchi sstenariylarga bo'linadi. Klient tomonida bajariluvchi sstenariylar brouzer yordamida bajariladi. Server tomonida bajariluvchi sstenariylar esa Web-server yordamida bajariladi.

HTML (Hyper Text Markup Language) – belgili til bo'lib, ya'ni bu tilda yozilgan kod o'z ichiga mahsus ramzlarni mujassamlashtiradi. Bunday ramzlar hujjat ko'rinishini faqatgina boshqarib, o'zi esa ko'rinmaydi. HTMLda bu ramzlarni teg (teg – yorlik, belgi) deb ataladi. HTMLda hamma teglar ramz-chegaralovchilar (< , >) bilan belgilanadi. Ular

orasiga teg identifikatori (nomi, masalan V) yoki uning atributla yoziladi. Yagona istisno bu murakkab chegaralovchilar (<!--va -->) yordamida belgilanuvchi sharxlovchi teglardir. Aksariyat teglar jufti bilan ishlatiladi. Ochuvchi tegning jufti yopuvchi teg. Ikkala juft teg faqatgina yopuvchi teg oldidan «slesh» (“/”) belgisi qo’yilishini hisobga olmaganda, deyarli bir xil yoziladi. Juft teglarning asosiy farqi shundaki, yopuvchi teg parametrlardan foydalanmaydi. Juft teg yana konteyner deb ham ataladi.

Juft teglar orasiga kiruvchi barcha elementlar teg konteyneri tarkibi deyiladi.

Yopuvchi tegda zarur bo’lmagan bir qator teglar mavjud. Ba’zida yopuvchi teglar tushirib qoldirilsa ham zamonaviy brauzerlar aksariyat hollarda hujjatni to’g’ri formatlaydi,

Biroq buni amalda qo’llash tavsiya etilmaydi. Masalan, rasm qo’yish tegi , keyingi qatorga o’tish
, baza shriftini ko’rsatish <BASEFONT> va boshqalar o’zining , </BR> va hokazo yopuvchi juftlarisiz yozilishi mumkin.

Noto’g’ri yozilgan tegni yoki uning parametri brauzer tomonidan rad qilinadi. (bu brauzer tanimaydigan teglarga ham taalluqli). Masalan, <NOFRAME> teg-konteyneri faqatgina freymlarni taniydigan brauzer tomonidan hisobga olinadi. Uni tanimaydigan brauzer <NOFRAME> tegini tushunmaydi. Teglar parametr va atributlarga ega bo’lishi mumkin.

Parametrlar yig’indisi har-bir tegda individualdir. Parametrlar quyidagi koida asosida yoziladi:- Teg nomidan so’ng probellar bilan ajratilgan parametrlar kelishi mumkin. Parametrlar ixtiyoriy tartibda keladi;- Parametrlar o’zining nomidan keyin keluvchi «=» belgisi orqali beriluvchi qiymatlarga ega bo’lishi u 1084 mumkin. - Odatda

parametrlar qiymati « » - «ko’shtirnoq» ichida beriladi. - Parametr qiymatida ba’zan yozuv registri muxim. Shuni esda tutish lozimki, hamma teglar o’zining individual parametriga ega bo’lishiga karamay, shunday bir qator parametrlar mavjudki, ularni <BODY> bo’limining barcha teglarida ishlatish mumkin. Bu parametrlar CLASS, ID,

LANG, LANGUAGE, STYLE va TITLElardir. HTML-hujjatini yozishni boshlashda ishlatiladigan birinchi teg bu <HTML> tegidir. U har doim hujjat yozuvining boshida bo'lishi lozim. Yakunlovchi teg esa </HTML> shakliga ega bo'lishi kerak. Bu teglar, ular orasida joylashgan yozuvning xammasi butun bir HTML-hujjatini anglatishi bildiradi. Aslida esa hujjat oddiy matnli ASCII-faylidir. Bu teglarsiz brauzer hujjati formatini aniqlab, tarjima qila olmaydi. Ko'pincha bu teg parametrga ega emas.

HTML 4.0 versiyasiga qadar VERSION parametri mavjud edi. HTML4.0da esa VERSION o'rniga <!DOCTYPE> parametri paydo bo'ldi.

<HTML> va </HTML> orasida 2 bo'limdan tashkil topishi mumkin bo'lgan hujjatning o'zi joylashadi. Mazkur hujjatning birinchi bo'limi sarlavhalar bo'limi (<HEAD> va </HEAD>), ikkinchi bo'lim esa hujjat tana qismidir (<BODY> va </BODY>), uni hujjat tanasi ham deb yuritamiz. Freym tuzilishi hujjatlar uchun <BODY> bo'limining o'rniga <FRAMESET> bo'limidan foydalaniladi.

Hujjatning HEAD bo'limi

HEAD bo'limi sarlavha hisoblanadi va u majburiy teg emas, biroq mukammal tuzilgan sarlavha juda xam foydali bo'lishi mumkin. Sarlavha qismining maqsadi hujjatni tarjima kilayotgan dastur uchun mos axborotni yetkazib berishdan iborat. Hujjat nomini ko'rsatuvchi <TITLE> tegidan tashqari bu bo'limning qolgan barcha teglari ekranda aks ettirilmaydi. Odatda <HEAD> tegi darhol <HTML> tegidan keyin keladi. <TITLE>

tegi sarlavhaning tegidir, va hujjatga nom berish uchun xizmat kiladi. Hujjat nomi <TITLE> va </TITLE> teglar orasidagi matn qatoridan iborat. Bu nom barauzer oynasining sarlavhasida paydo bo'ladi (bunda sarlavha nomi 60 belgidan ko'p bo'lmasligilozim). O'zgartirilmagan holda bu matn hujjatga «zakladka» (bookmark) berilganda ishlatiladi. Hujjat nomi uning tarkibini qisqacha ta'riflashi lozim. Bunda umumiy ma'noga ega bo'lgan nomlar (masalan, Homepage, Index va boshqalar)ni ishlatmaslik

lozim. Hujjat ochilayotganda birinchi bo'lib uning nomi aks ettirilishi, so'ngra esa hujjat asosiy tarkibi ko'p vaqt olib, kengayib ketishi mumkin bo'lgan formatlash

bilan birga yuklanishini hisobga olgan holda, foydalanuvchi xech bo'lmaganda ushbu axborot qatorini o'qiy olishi uchun hujjatning nomi berilishi lozim.

Hujjatning BODY bo'limi

Ushbu bo'linma hujjatning tarkibiy qismini o'z ichiga oladi. Bo'linma <BODY> tegidan boshlanib </BODY> tegida tugaydi. Biroq ushbu teglar qat'iy mavjud bo'lishi shart emas, chunki brauzerlar matnga qarab hujjat tarkibiy qismining ibtidosini aniqlashi mumkin. <BODY> tegining bir qator parametrlari mavjud bo'lib, ularning birortasi ham majburiy emas.

<**BODY**> tegi parametrlari:

ALINK – faol murojaat (ssылka)ning rangini belgilaydi.

BACKGROUND – fondagi tasvir sifatida foydalaniluvchi tasvirning

URL-manzilini belgilaydi.

BOTTOMMARGIN – hujjatning quyi chegaralarini piksellarda belgilaydi.

BGCOLOR – hujjat fonining ranglarini belgilaydi.

BGPROPERTIES – agar FIXED qiymati o'rnatilmagan bo'lsa, fon tasviri aylantirilmaydi.

LEFTMARGIN – chap chegaralarni piksellarda belgilaydi.

LINK – xali ko'rib chiqilmagan stillkaning rangin belgilaydi.

RIGHTMARGIN – hujjat o'ng chegarasini piksellarda o'rnatadi.

SCROOL – brauzer darchalari xarakatlantirish (prokrutka) yo'laklarini o'rnatadi.

TEXT – matn rangini aniqlaydi.

TOPMARGIN – yuqori chegarasini piksellarda o'rnatadi.

VLINK – ishlatilgan murojaat rangini belgilaydi.

BOTTOMMARGIN, LEFTMARGIN, RIGHTMARGIN va TOPMARGIN pametrlari matn chegarasi va darcha chetlari orasidagi masofani piksellarda belgilaydi. (Faqat HTML 4.0 versiyasidan boshlab IE brauzerlari bu parametrlarni taniy oladi) BGPROPERTIES

parametri faqatgina bitta FIXED qiymatiga ega. HTML dagi ranglar o'n oltilik sanoq tizimida (RGB), yoki ranglar nomi yordamida berilishi mumkin. Ranglar bazasi 3 ta rangga –qizil (R) , yashil (G) va ko'k (B) ranglarga asoslangan bo'lib, u

RGB deb belgilanadi. Har-bir rang uchun 00 dan FF gacha bo'lgan o'n oltilik sanoq tizimidagi qiymat beriladi, bu esa 0 dan 255 gacha bo'lgan diapazonga to'g'ri keladi. So'ngra bu qiymatlar bir songa birlashtiriladi va ularning oldiga “#” belgisi qo'yiladi. Masalan,

#800080 siyoh rangni bildiradi.

Misollar:

<BODY TEXT = “#000000”> yoki <BODY TEXT = black>

<BODY BGCOLOR = “#ffffff”> yoki <BODY BGCOLOR = WHITE>

<BODY LINK = “#ff0000”> yoki <BODY LINK = RED>

<BODY LINK = “#00FFFF” ALINK = “#800080”> yoki <BODY VLINK = Aqua
ALINK =

PURPLE>

Hamma brauzerlar o'n oltilik sanoq tizimidagi standart ranglarni taniydi. Bular quyidagilardir:

Black #000000 Maroon #800000

Silver #C0C0C0 Red #FF0000

Grey #808080 Purple #800080

White #FFFFFF Green #008000

Fuchsia #FF00FF Navy #000080

Lime #00FF00 Blue #0000FF

Olive #808000 Teal #008080

Yellow #FFFF00 Aqua #00FFFF

Misol:

<BODY BGCOLOR = AQUA TEXT = “#848484” LINK = RED VLINK =
PURPLE ALINK
= GREEN>

Agar BGCOLOR parametri rangni nomi yoki uning tarkibiy qismlarini o'n oltilik sanoq tizimidagi kodda keltirish vazifasi yordamida fon ranggini chiqarish uchun ishlatilsa, BACKGROUND tasvir yordamida sahifaga fon berishda foydalaniladi.

Tasvir sifatida GIF yoki JPG formatidagi grafik fayllar ishlatiladi. HTML-hujjat fonidagi tasvir doimo butun sahifani to'ldirib turadi. Agar tasvir o'lchami darcha o'lchamidan kichik bo'lsa, u mozayka tamoyiliga asosan ko'paytiriladi. Odatda fon tasviri sifatida tarmoq orqali yuklash uchun uncha ko'p vaqt ketmaydigan kichik tasvir tanlab olinadi, yoki fon sifatida shaffof relef logotipi tasviridan foydalaniladi.

Misol:

```
<BODY BACKGROUND = texture.gif BGCOLOR = gray>.
```

Sahifa yaratilishida doimo fon rangini berish tavsiya qilinadi. Agar fon tasviri ham berilayotgan bo'lsa, fon va tasvir ranglari bir-biriga yaqin bo'lgani maqul.

Misol:

```
<BODY TEXT = BLUE LINK = RED VLINK = BLUE ALINK = PINK  
BACKGROUND=""
```

```
HYPERLINK "http://www.foo.com/jkorpela/HTML3.2/wave.gif" >.
```

Misol:

```
<HTML>
```

```
<HEAD>
```

```
<TITLE> - sahifa fonini berish misoli
```

```
</TITLE>
```

```
</HEAD>
```

```
<BODY BGCOLOR = YELLOW TEXT = BLACK LINK = RED VLINK =  
PURPLE ALINK
```

```
= GREEN>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

HTMLda formalar. Formaning sintaksis ko'rinishi.

HTML formalar, foydalanuvchilar tomonidan, ma'lumotlarni kiritish va kiritilgan ma'lumotlardan keyinchalik foydalanish maqsadida tashkil qilingan. Formalar – matnli oynalar, tugmalar, bayroqchalar, ulagich(pereklyuchatel)lar va menyular kabi boshqariladigan elementlardan tashkil topishi mumkin. Formalar `<form>` va `</form>` teglari orasida joylashadi.

Ba'zi hollarda foydalanuvchi bilan brauzer o'rtasida aktiv muloqot qilishga to'g'ri keladi, ya'ni ma'lumotlarni kiritishga va tahrir qilishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda biz yuqorida aytganimizdek HTML hujjatning formalar deb ataluvchi bo'limidan foydalanamiz. Foydalanuvchi yuqorida ko'rsatilgan formalarni ma'lumotlar bilan to'ldiradi va uni qayta ishlash uchun serverga jo'natadi. Server bu odatda Web-server yoki elektron pochta serveri bo'lishi mumkin.

Shunday qilib har qanday formaning asosiy qismi bo'lib uning boshqariladigan elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning har biri o'z nomiga ega va bundan tashqari bu elementlar o'zining boshlang'ich qiymatiga hamda joriy qiymatiga ega.

Elementning boshlang'ich qiymati uning birinchi hosil qilinishida yoki uning qaytadan o'rnatilishida (inistializastiya) ekranda tasvirlanadi. Keyinchalik foydalanuvchi bu qiymatlarni o'zgartirishi mumkin. Foydalanuvchi tomonidan to'ldirilgan formaning qiymatlari «nom=qiymat» juftlik ko'rinishida qayta ishlanish uchun jo'natiladi.

Formalar tashkil qilish *form* elementi yordamida amalga oshiriladi va biz uning umumiy ko'rinishi bilan tanishib chiqamiz.

Umumiy ko'rinishi:

Sintaksis : `<FORM> ... </FORM>` (Blokli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, xodisa*

action = URL (formalarni qayta ishlash uchun ko'rsatilgan URL manzil)

method = *GET* | *POST* (formalardagi ma'lumotlarni jo'natish uchun HTTP metodi)

enctype = fayl tipi(formaga murojat qilish uchun)

accept = fayllar tiplari (bo'lishi mumkin bo'lgan fayllar tiplari)

accept-charset = kodlashtirishlar (bo'lishi mumkin bo'lgan simvollarni kodlash usullari)

name = CDATA (sstenariya uchun forma nomi)

target = freym (natijalarni hosil qilish uchun freym)

onsubmit = sstenariya (formani jo'natish)

onreset = sstenariya (formani qaytadan o'rnatish)

Misol 10_1.

```
<html>
<head>
    <title>Formalarga doir misol</title>
</head>
<body>
<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">
<p>
<label for="firstname"> ism: </label>
<input type="text" id="firstname">
<br>
<label for="lastname"> familiya: </label>
<input type="text" id="lastname">
<br>
<label for="email"> e-mail: </label>
<input type="text" id="mail">
<br>
<input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked "> erkak
<br>
```

```
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<input type="submit" value="send">
<input type="reset" value="Reset">
</p>
</form>
</body>
</html>
```

Formaning sintaksis ko'rinishi

Hamma formalar <FORM> tegi bilan boshlanib </FORM> tegi bilan tugaydi.

```
<FORM METHOD="get|post" ACTION="URL">
```

Forma_Elementlari_va_boshqa_HTML_elementlari </FORM>

METHOD

Forma ma'lumotlarni yuborish metodi. Ikki usul orqali ma'lumotni yuborish mumkin:

- **GET:** formaning sarlavha qismiga ko'rsatilgan URL ni oxiriga forma ma'lumot-lari qo'shiladi. Sizning CGI-dasturingiz (CGI-skript) formaning ma'lumotlarini QUERY_STRING ni parametrlariidan oladi. GET medodidan foydalanishni maslahat bermaymiz.
- **POST:** formaning sarlavha qismiga ko'rsatilgan URL ga barcha ma'lumotlarni darhol yuboradi (ko'rinmas holatida). Sizning CGI-dasturingiz forma ma'lumotlarni, standart ma'lumotlar oqimidan oladi.

ACTION

ACTION formani ma'lumotlarini qaysi URL adresiga yuborishni ko'rsatadi.

Forma teglari

TEXTAREA

Foydalanuvchi ko'p satrli ma'lumot kiritishi uchun <TEXTAREA> tegidan foydalaniladi (oddiy matn). <TEXTAREA> tegdan foydalanishga misol:

```
<TEXTAREA NAME="address" ROWS=10 COLS=50>
```

O'zbekiston,

K Murtazoev ko'chasi,

11 uy.

</TEXTAREA>

<TEXTAREA> ichida ishlatiladigan atributlar. Tashqi ko'rinishi va nomi berilgan.

Teg </TEXTAREA> atributlarsiz ham foydalanish mumkin:

- **NAME** – ma'lumot kirituvchi ob'ekt (maydon) ni nomi.
- **ROWS** – ma'lumot kirituvchi ob'ektni balandligi (belgilarga necha satrli).
- **COLS** - ma'lumot kirituvchi ob'ektni kengligi (belgilarga necha belgili).

Agar siz ma'lumot kirituvchi ob'ekt (maydon) ichida o'zi bilan birga ma'lumot chiqishini xohlasangiz, unda <TEXTAREA> va </TEXTAREA> orasiga joylashtiring.

INPUT

<INPUT> tegi bir satrli yoki bir so'zli ma'lumot kiritish uchun ishlatiladi. Teg atributlari:

- **CHECKED** – tanglagich CHECKBOX yoki RADIOBUTTON ni tanlanganligini bildiradi.

Web sahifa menyu ob'ekti.

<SELECT>: RO'YXAT OBYEKTI

<FORM>

<SELECT NAME=group>

<OPTION value="A1"> AT 386

<OPTION value="A2" selected> AT 486

<OPTION value="A3"> AT 586

<OPTION value="A4"> Pentium I

<OPTION value="A5"> Pentium II

<OPTION value="A6"> Pentium III

</SELECT>

</FORM>

<SELECT>: RO`YXAT OBYEKTI KO`P SATRLI

<FORM>

<SELECT NAME=group SIZE=4>

<OPTION value="A1"> AT 386

<OPTION value="A2" selected> AT 486

<OPTION value="A3"> AT 586

<OPTION> Pentium I

<OPTION> Pentium II

<OPTION> Pentium III

</SELECT>

</FORM>

<SELECT>: RO`YXAT OBYEKTI KO`P SATRLI Ko`p tanlash imkoniyati orqali

<FORM>

<SELECT NAME=group SIZE=4 multiple>

<OPTION value="A1"> AT 386

<OPTION value="A2" selected> AT 486

<OPTION value="A3"> AT 586

<OPTION value="A4"> Pentium I

<OPTION value="A5"> Pentium II

<OPTION value="A6"> Pentium III

</SELECT>

</FORM>

6. Freymmlarning aniqlanishi. Freymli strukturalarning berilishi (<FRAMESET>, <NOFRAMES> teglari). Freym atributlari.

Bizga ma'lumki bir vaqtning o'zida brauzer oynasiga ikkita HTML hujjatni yuklay olmaymiz. Agar biz ishlatayotgan Web sahifalarimizning barchasida bir xil menyu bandlari mavjud bo'lsa har safar Web sahifani yuklaganimizda bir xil ma'lumotni qayta-qayta yuklashga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar uncha katta bo'lmasligi

mumkin, lekin uni yuklash ma'lum bir sekundlarni oladi. Shuning uchun Web sahifalarning o'zgarib qolmaydigan elementlarini har safar yuklamasdan o'zgarishsiz qoldirish kerak. Bu muammolarni echish imkoniyatlari bor. Biz bitta oynani bir nechta to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lib ularning har biriga bitta HTML hujjat yuklashimiz mumkin. Bu to'g'ri to'rtburchak sohalarni biz freymlar deb ataymiz.

Formaning elementlari va ulardan foydalanish.

Bayroqchalar (*checkboxes*)

Bayroqcha – bu ikkita (tanlangan yoki tanlanmagan) holatga ega bo'ladigan element. Bayroqchalar *input* elementi yordamida hosil qilinadi.

Ulagichlar (*radiobuttons*)

Ulagichlar ham bayroqchalarga o'xshaydi, ammo bitta farqi shundaki hamma elementlari bitta nomga ega bo'ladi va shulardan bittasi tanlanadi. Ulagichlar ham *input* yordamida tashkil qilinadi.

Menyular (*menus*)

Menyu foydalanuvchiga bir nechta variantlardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatini yaratadi. Menyu *select* elementi yordamida *optgroup* va *option* lar bilan birgalikda tashkil qilinadi.

Matn kiritish maydoni (*text input*)

Matnni foydalanuvchi tomonidan kiritilishini amalga oshiruvchi ikkita element mavjud. *input* elementi bitta qatorli kiritishni ta'minlaydi. *textarea* – ko'p qatorli kiritishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Fayl selektori (*file select*)

Bu element yordamida biz serverga yuboradigan faylni tanlaymiz. Fayl selektori ham *input* elementi yordamida amalga oshiriladi.

<form> </form> teglari

Formalar tashkil qilish *form* elementi yordamida amalga oshiriladi va biz uning umumiy ko'rinishi bilan tanishib chiqamiz.

Umumiy ko'rinishi:

Sintaksis : *<FORM> ... </FORM>* (Blokli element)

Atributlar: *id, class, style, title, lang, dir, xodisa*

action = *URL* (formalarni qayta ishlash uchun ko'rsatilgan URL manzil)

method = *GET* | *POST* (formalardagi ma'lumotlarni jo'natish uchun HTTP metodi)

enctype = fayl tipi (formaga murojat qilish uchun)

accept = fayllar tiplari (bo'lishi mumkin bo'lgan fayllar tiplari)

accept-charset = kodlashtirishlar (bo'lishi mumkin bo'lgan simvollarni kodlash usullari)

name = *CDATA* (sstenariya uchun forma nomi)

target = freym (natijalarni hosil qilish uchun freym)

onsubmit = sstenariya (formani jo'natish)

onreset = sstenariya (formani qaytadan o'rnatish)

Misol 10_1.

`<html>`

`<head>`

`<title>Formalarga doir misol</title>`

`</head>`

`<body>`

`<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">`

`<p>`

`<label for="firstname"> ism: </label>`

`<input type="text" id="firstname">`

`<br>`

`<label for="lastname"> familiya: </label>`

`<input type="text" id="lastname">`


`<br>`

`<label for="email"> e-mail: </label>`

```

<input type="text" id="mail">
<br>
<input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked "> erkak
<br>
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<input type="submit" value="send">
<input type="reset" value="Reset">
</p>
</form>
</body>
</html>

```



Ma'lumotlarni kiritish **INPUT** elementi

Umumiy ko'rinishi:

Sintaksis: <INPUT> (Yopiluvchi tegi yo'q)

Atributlari: id, class, style, title, lang, dir, hodisa

type = TEXT | PASSWORD | CHECKBOX | RADIO | SUBMIT | RESET |

FILE | HIDDEN | IMAGE | BUTTON (Kiritish turi)

name = CDATA (Element nomi)

value = CDATA (Elementning boshlang'ich qiymati)

checked = CHECKED (Bayroqchalar va ulagichlarning tanlanganlik xolati)
readonly = READONLY (Matn va parol uchun *faqat kishi uchun*)
disabled = DISABLED (Element taqiqlangan)
size = CDATA (Elementning boshlang'ich kengligi)
maxlength = son (Matndagi maksimal simvollar soni)
src = URI (URI (Universal Resource Identifier) Tugmaning grafik shakli)
alt = tekst (Tugma uchun alternativ matn)
usemap = URI (URI murojaatlarning mijoz kartasi)
ismap = ISMAP (murojaatlarning server kartasi)
accesskey = simvol (Tez murojaat uchun tugma nomi)
tabindex = son (Tab tugmasi bilan borish uchun tartib raqami)
accept = fayllar tiplari (Mumkin bo'lgan fayllar tiplari)
onfocus = sstenariya (Element fokuslanganda yuz beradi)
onblur = sstenariya (Element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi)
onselect = sstenariya (Element matni tanlanganda)
onchange = sstenariy (Element qiymati o'zgarganda)

text – bir qatorli kiritish maydoni. *value* – bu parametrga maydoning boshlang'ich qiymati beriladi. *size* – maydoning o'lchami. *maxlength* – bir maydondagi mumkin bo'lgan simvollar soni. *readonly* – matnni o'zgartirishni taqiqlaydi.

password – parolni kiritish maydoni, bu maydoning matnni kiritish maydonidan farqi shundaki bu erda kiritilayotgan simvollar * bilan almashtiriladi va qaysi belgilar kiritilayotganligi ekranda ko'rinmaydi. Ammo kiritilgan matn serverga hech qanday kodlanmasdan oddiy matn ko'rinishida yuboriladi, shuning uchun bu element yordamida mahfiy ma'lumotlarni (kredit kartochka nomerlari) yuborish tavsiya qilinmaydi.

checkbox – bayroqcha *Value* ga tanlangan element qiymati yuboriladi.

radio – ulagich. *Value* ning qiymati tanlangan element qiymatiga teng bo'ladi.

reset – formaning bekor tugmasi. Bu tugma bosilsa formadagi hamma qiymatlar boshlang'ich qiymatga qaytariladi.

submit – formaning jo'natish tugmasi. Bu tugma bosilsa formadagi qiymatlar serverga “*value=qiymat*” ko'rinishida jo'natiladi. Agarda bitta formada bar nechta shunday (*submit*) tugma bo'lsa unda ularga name atributi yordamida nom berish kerak. Chunki jo'natilgan ma'lumotlarni qayta ishlovchi dastur qaysi tugma bosilganini aniqlab olishi lozim.

image – formani jo'natishning grafik tugmasi. Bu erda *src* atributi yordamida grafik tasvirning manzili beriladi, *alt* yordamida esa tugmaning alternativ matni o'rnatiladi. Grafik tugmaning sichqoncha bosilgan joyining koordinatalari serverga *name.x* va *name.y* o'zgaruvchilar yordamida jo'natiladi, bu erda *name* tugma nomi.

button – umumiy turdagi tugma. *value* atributiga tugma matni beriladi. *onclick* atributiga tugma bosilganda ishlashi kerak bo'lgan ssenariy beriladi.

Formalar boshqa elementlar konteynori bo'lgan maxsus **<form>** elementi yordamida hosil qilinadi. Konteynorni ishlatishning umumiy sxemasi quyidagicha:

```
<form method="get_yoki_post" action= "Ma'lumotlar uchun mo'ljallangan URL">
```

... forma elementlari...

```
</form>
```

<form> elementi ikkita, **method** va **action** atributlariga ega. **Method** atributi ma'lumotlarni serverga jo'natish turini aniqlab, **get** yoki **post** qiymatlardan birini qabul qiladi. Odatda **get** metodida ma'lumotlarning hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi (100 simvoldan ko'p bo'lmagan). Umuman agar formada bir nechta element bo'lib, ularni yuqori tezlikda jo'natish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilgani birinchi bo'lib uzatiladi. Masalan:

```
<form method= "get" action= "/cgi-bin/search">
```

Agar formaga ko'plab ma'lumotlarni joylashtirish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilmasligi kerak. Bunday holatlar uchun ma'lumotlar uzatishda ularning hajmlariga bogliq bo'lmagan **post** metodi bor:

<form method= “get” action= “/cgi-bin/survey.pl”>

<form> elementining ikkinchi atributi **action** dir. U olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydigan skriptning **URL** adresini o'zida saqlashi kerak. Odatda skriptlar serverda **bin/** yoki **cgi-bin/** papkalaridan birida saqlanadi.

Formalar qo'llanilishining eng ko'p tarqalgan usuli bu foydalanuvchidan matnli ma'lumotlar olishga mo'ljallangan. Bu masalan, sayt haqida foydalanuvchining fikri yoki foydalanuvchining elektron adresi yozilishiga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Buning uchun matnli maydon hosil qilinishi kerak. <textarea> elementi shu vazifani bajarishga mo'ljallangan. Ma'lumotlar kiritiladigan oynaning qatorlari va ustunlari sonini o'rnatish mumkin:

<textarea name="comments" rows="5" cols="100">

Bu erga elektron pochta adresingizni kiriting

</textarea>

Bu yerdagi o'rtadagi matn ekranda hosil bo'ladi. Yuqoridagi atributlardan tashqari yana **readonly** atributi ham qo'llanilishi mumkin (readonly=“readonly”). Bu atribut qo'llanilganda ekranda hosil bo'luvchi matnni o'zgartirishning iloji yo'q.

<input> elementi.

Ko'p hollarda foydalanuvchilardan chegaralangan javoblardan birini tanlash talab qilinadi. <input> elementi yordamida bir nechta boshqaruv elementlarini hosil qilish mumkin:

- Kiritish maydoni (type=“text”). Bu bizga yuqorida keltirilgan elementni eslatadi. Farqi bunda faqatgina bir qatorli oyna hosil bo'ladi. Odatda foydalanuvchi ismi, familiyasiga o'xshash ma'lumotlarni kiritishi uchun ishlatiladi. **Size** atributi yordamida uning uzunligini berish mumkin. **value** atributi yordamida biror matnni kiritish mumkin (po umolchaniyu):

Фамилия: <input type= “text” name= “last_name” size= “40” maxlength= “40” value= “Petrov” /> ;

- Parol (type="password"). Bu maxsus ma'lumot kiritish maydoni bo'lib, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar ekranga o'qilmaydigan holatda chiqariladi. Bu text turiga o'xshab ketadi. Uni bo'sh qoldirish mumkin yoki «*» belgisi orqali biror parolni yozish mumkin:

Parolni kiriting: `<input type= "password" name= "password1" size= "10" maxlength= "10" />`

- Flajok (type="checkbox"). Foydalanuvchi tavsiya etilgan variantlardan bir nechtasini o'rnatishi yoki bekor qilishi mumkin. Oldindan birortasini belgilab qo'yish imkoniyati ham bor:

Saytni qanday topdingiz: `<br />`

`<input type="checkbox" name="web" checked="checked" />` Internet qidiruv tizimlaridan`<br />`

`<input type="checkbox" name="tele" />` Radio yoki televidenie reklamalaridan`<br />`

`<input type="checkbox" name="press" />` Gazeta yoki jurnallardan`<br />`

- Pereklyuchatel (type="radio"). Foydalanuvchi bir nechta variantlardan faqat bittasini tanlashi mumkin bo'ladi. Bu flajok elementiga o'xshaydi biroq bu erdagi ma'lumotlardan faqat bittasini tanlash mumkin. Har qaysi pereklyuchatel **value** atributiga ega bo'lishi shart. Oldindan biror variantni belgilab qo'yish ham mumkinki, foydalanuvchi ulardan birortasini belgilashni unutgan holda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xatolikning oldini olish mumkin:

Saytni qanday topdingiz: `<br />`

`<input type="radio" name="where" value="web" checked="checked" />` Internet qidiruv tizimlaridan`<br />`

`<input type="radio" name="where" value="tele" />` Radio yoki televidenie reklamalaridan`<br />`

`<input type="radio" name="where" value="press" />` Gazeta yoki jurnallardan`<br />`

- Yopiq maydon (type="hidden"). Bu kiritish maydonining ko'rinmas holati bo'lib, undagi ma'lumotni o'zgartirish mumkin emas. Bu elementning ma'lumotlar kiritilishiga umuman aloqasi yo'q. Uning qiladigan vazifasi biror qiymatni serverga jo'natishdir. Masalan, bir nechta formalarni qayta ishlash uchun aynan bitta skript ishlatilsa, qaysi formadagi ma'lumotlar ishlanayotganligini bildirish uchun forma nomini kiritib qo'yish mumkin:

```
<input type="hidden" name="forma_nomi" value=form2" />
```

- Boshqarish tugmasi (type="button", type="reset", type="submit"). O'zgarishlarni tasdiqlash yoki ularni bekor qilish tugmalari. Tugmalardan foydalanishda type="reset" qo'llanilsa, formadagi hamma o'zgarishlarni tozalash imkoniyati bo'ladi. Ya'ni tugmani bosish natijasida forma avvalgi holatga qaytadi:

```
<input type="reset" value="Formani tozalash " />
```

Kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlab serverga jo'natish tugmasini yasash ham mumkin: type="submit". Bu yerda faqat **value** atributi qo'llanilishi yetarli:

```
<input type="submit" value="Тасдиқлаш" />
```

Tugmaning ustiga istalgan matnni yozish mumkin. **Ok** har doim ham tushunarli bo'lavermasligi mumkin.

Agar tasdiqlash tugmasida grafikadan foydalanmoqchi bo'lsak, type="image" ni qo'llash mumkin. Bunda grafik faylning **URL** adresini va alternativ matnni kiritish kerak bo'ladi:

```
<input type="image" src="D:\DocNazokat\Web\Gerb.gif" alt="Tasdiqlash " />
```

Bundan tashqari <button> elementi ham mavjud bo'lib, uning yordamida ixtiyoriy tugmani formaga qo'yish mumkin. Uning **type** atributi mavjud bo'lib, uchta **reset**, **submit**, **image** qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin. U alohida konteynor bo'lganligi sababli ni ham qo'llash mumkin:

```
<button name="submit" type="submit">
```

```
<span style="font-family: Courier New; font-size: 14pt; font-variant: small-caps">  
Jo'natish</span>
```

</button>

yoki

<button name="reset" type="reset">

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. T. Staufer. Sozdanie web-stranits. Samouchitel. – «Piter», Sankt-Peterburg, 2003 g.
2. A. Goncharev. HTML. Samouchitel. – «Piter», Sankt-Peterburg, 2001 g.
3. Allen Vayk. JavaScript. Entsiklopediya polzovatelya: per. s. ang. – «TID» «DS», Kiev, 2001 g.
4. webmastering – elektron o`quv qo`llanma.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. A.I. Tixonov. «Publikatsiya dannix v Internet» Uchebnoe posobie. Moskva Izdatelstvo «Мир» 2000
2. JavaScript ni urganish buyicha elektron qo`llanmalar.
3. Xaitov F.N., Yusupov R.M., Botirov D.B., Sattarov A.R, Shukurov E.X. Web-texnologiyalar. Metodik qo`llanma. Juzzax, 2005 y.
4. Internet web-saytlari:
 - a. <http://www.cgi.ru>
 - b. <http://www.woweb.ru>
 - c. <http://www.ru>
 - d. <http://www.vanta.ru/script/>
 - e. <http://www.vbnet.ru>
 - f. <http://www.scriptic.ru/>
 - g. <http://www.webacademy.com/>

h. <http://pacificwebart.com/>